

# Yashil

## IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 4

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 882 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 30-aprelda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Guinora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Uteyev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Organizational Behavior and Leadership.....	10
<b>Ibrokhim Gulomov</b>	
Baliqchilikda klasterlarini tashkil etishning nazariy asoslari .....	18
<b>Olim Murtazayev, Muydinov Olim Bekmuratovich</b>	
Ocenka sostoyaniya privlecheniya investitsiy v sfere turizma Uzbekistana i mehanizmy upravleniya 24	
<b>Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon ulgi</b>	
Biologik aktivlar buxgalteriya hisobni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari...27	
<b>Axmadalievna Zebo Abduxalimovna</b>	
Aholi yashash joylarida yong'in risklarini bartaraf etish xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari.....32	
<b>Aziz Zikriyoev</b>	
O'zbekistonda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi va vazifalari.....40	
<b>Beknaeva Shaxnoza Vladimirovna</b>	
Mintaqaviy turizmnинг iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri (O'zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida).....45	
<b>D. B. O'rroqova</b>	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning asosiy yo'llari.....50	
<b>Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'il, Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'il</b>	
Sanoat korxonalarining aksiyalar bozoridagi faoliyati tahlili: muammolar va yechimlar .....55	
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
Qurilishda modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish .....63	
<b>Islamov Ozodjon</b>	
Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....67	
<b>J. K. Boymurodov</b>	
Mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlanish yo'nalishlari .....	72
<b>Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna</b>	
BlokchEYn texnologiyalari yordamida raqamli iqtisodiyotni o'zgartirish .....	77
<b>Karabayev Rustam Zafarovich, Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'il</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi .....	84
<b>Layli Mirzayeva</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari.....88	
<b>Luiza Komilovna Xaydarova</b>	
Umumta'lum muassasalari sonining ekonometrik tahlilini pedagogik metodlar yordamida amalga oshirish....93	
<b>Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna</b>	
O'zbekiston tarixiy shaharlarida turistik faoliyati shakllanishi va ularni boshqarishning nazariy asoslari.....98	
<b>Meliqulov G'ayrat Abdig'afarovich</b>	
Iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishining havo ifloslanish darajasiga ta'siri .....	105
<b>Murodullayev Kamoliddin Sherzod o'g'il, Sadibekova Bibisora Djapparovna, Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'il</b>	
Hududlarni rivojlantirish va "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishning ekologik muammolari.....110	
<b>Maxkamov Saidafzal Saidkamol o'g'il, Yigitaliyeva Dilnava Mansurjon qizi</b>	
Ekoturizm obyektining tasniflanishi va alohida xususiyatlari .....	116
<b>Qodirov Azizjon Anvarovich</b>	
Mamlakatimiz oliv ta'lim tizimda sifat menejmentidan foydalanishning konseptual asoslari .....	121
<b>Saidqulova Firuza Farmonovna</b>	
Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalari.....	125
<b>Shukurova Marifat Xodjiakbar qizi</b>	
Ta'limning bosqichlari va ularning inson kapitalini shakllantirishdagi ahamiyati .....	129
<b>To'rayeva Hurriyat To'yqulovna</b>	



Hududlarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish dasturini amalga oshirishda marketingni rivojlantirish yo'llari .....	136
Xamidov O. X., Tojiyeva A. F.	
Investitsiyalar marketingining strategik aspektlari.....	143
Kodjamberdiyeva Dilnoza Bahtiyorovna	
Xorijiy investitsiyalarni jalg etishda investitsion muhit jozibadorligini oshirishga nazariy qarashlar .....	149
A. Bektemirov, A. A. Abdurahmonov	
Qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishning ilg'or xorij tajribasi.....	154
Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich, Ochilov Narzullo Fayzulloyevich	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari.....	159
Yodgorova Xalima To'lqinovna	
Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va xususiy sherikchilikning o'zaro bog'liqligi tahlili.....	165
Raxmatov Adxam Itolmasovich	
Mamlakatimizda turizm tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida marketing instrumentlari orqali samarali tizim yaratish.....	169
Suyunova Kamilla Baxromovna	
Qishloq xo'jaligida agrokimyo xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari .....	173
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalg qilishni faollashtirish muammolari.....	178
Xomitov K. Z., Masharipova S. R.	
Considerations on the Problem of Illegal Migration and Human Trafficking .....	183
Azamatova Gulmira Bayirbekovna, Otarbayeva Guljan Kobeyevna	
Sustainable Development and Environmental Economics in Uzbekistan: A Focus on Carbon Pricing and Renewable Energy .....	186
Muhammadiev Po'latjon Ilhomjon o'g'li, Uzganbayeva Dilnoza Toxtasinovna	
The use of Digital Technologies in the Provision Of Utilities to the Population .....	192
Mamanazarov Oybek Shomurodovich, Inoyatova Durdonga Shoxaydarovna, Alijonov Jamshid Alijon o'g'li	
The Current State of the Digital Economy in the Agrarian Sphere: Problems and Solutions .....	196
Babajanov Abdirashid Musayevich	
Behavioral Theory of the Firm .....	201
Egamberdieva Oydin Abror qizi	
The Role of Information Technologies in Increasing the Capitalization of Commercial Banks .....	207
Egamova Makhfurat Esanova	
Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан .....	211
Абдуллоев Фуркат Олимджонович	
Совершенствование методологии экспертизы инвестиционных проектов .....	216
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли .....	223
Бибутова Шахло Саъдullaевна	
Меры по снижению доли теневой экономики в стране.....	228
Махмудова Юлдузхон Баҳромжон қизи, Сафаров Гиёсиддин Абдуллаевич ўғли	
Формирование национальной инновационной системы – одна из приоритетных задач повышения конкурентоспособности Республики Узбекистан .....	232
Н. М. Махмудов, А. А. Алиев, З. А. Мирзоев	
Мониторинг и анализ современного состояния и развития промышленности в Узбекистане.....	237
Назарова Раъно Рустамовна, Исимолова Малика Дилшодовна	
Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов .....	243
Раупов Жамшид Рашидович	
Роль применения ключевых показателей эффективности труда на предприятиях .....	249
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна	



Влияние цифровой трансформации на инвестиционную привлекательность Узбекистана.....	255
Сайткамолов Мухаммадхожа Сабирходжа угли, Маркабаева Жансая Айбек кызы	
Организация и координация методической помощи при управлении педагогическими кадрами .....	261
Хакимова Майя Юрьевна	
Интеграция узбекистана в мировое экономическое содружество путем унификации бухгалтерского учета на основе МСФО .....	266
Зарипова Саёхат Зафаровна	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	271
Abduqodirova Ozoda Anvarjon qizi	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning joriy tahlili.....	276
Abdusalomov Jaxongir O'ktam o'g'li	
Globallashuv sharoitida mamlakatimizda sug'urta bozorini raqamlashtirishning ahamiyati.....	282
Anvarova Z.	
The Role of Parents and Teachers in Promoting a Healthy Lifestyle in Children.....	286
Axtamov Djamshed Baxromovich	
A Study of the Importance of Green Economy in Uzbekistan Sustainable Economic Development and its Measurement Indicators in Relation to Environment.....	291
Ataniyazova Maksuda Baltayevna, Tairova Zarnigor Mamat qizi	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	296
Avazov Ilhom Ravshanovich	
Foydani soliqqa tortish obyekti sifatidagi iqtisodiy tarkibi.....	301
Axrorov Zarif Oripovich	
Surxondaryo viloyatida aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini tahlili .....	309
Ibragimov Qobil To'xtamishovich	
Review of Methodological Approaches to Enterprises Financial Condition Analysis.....	314
Ismailova Maxbuba Mirxalilovna	
Innovatsion rivojlanish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini tasniflanishining nazariy va ilmiy asoslari.....	319
Masharipova Manzura Alimbayevna	
Korxonalarda benchmarketing strategiyalarini qo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari.....	325
Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna	
Davlat budgetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llari.....	330
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining rivojlanish holati tahlili.....	334
Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablari asosida tuzish.....	339
Pardayeva Zulfizar Alimovna	
Raqamlashtirish sharoitida qo'shma korxonasi faoliyatining tahlili.....	343
Rashidov Jamshid Xamidovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning rivojlanishida oilaviy tadbirdorlikning o'rni.....	348
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Saloxiddin Zuxriddin Nuriddin o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda xizmat ko'rsatishning ilmiy asoslari.....	352
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish ilmiy asoslari.....	356
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etishning huquqiy masalalari .....	360
Turg'unov Saloxiddin Jamol o'g'li, Mirzayeva Mohidil Vohidovna	
Zamonaviy sharitolarda korxonalarining moliyaviy baqarorligini yaxshilash masalalari .....	366
Usmanova Guljahon Ulug'bek qizi	
Franshizalarni jalb qilishda davlat boshqaruvi tizimida marketing tadqiqotlarining ahamiyati .....	371
Xodjayev Anvar Rasulovich	



Transport Decarbonization Strategy .....	377
<b>Yarashova Vasila Kamalovna, Muradov Bekzod Xidirnazar ugli</b>	
Temir yo'l transportida ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	382
<b>Yermatova Dilnoza Axmадjonovna</b>	
Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari .....	387
<b>Yuldashev Xusniddin Abdullayevich</b>	
Issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi va sifatini baholash ko'rsatkichlari tizimi.....	390
<b>Abdulaziz Abdumominovich Matro'ziyev</b>	
Issiqlik ta'minoti xizmatlari sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni baholash .....	394
<b>Abdulaziz Abdumominovich Matro'ziyev</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solishni takomillashtirish.....	399
<b>Abdullayev Zafarjon Alijonovich, Zaydullayev Abduhabib Boliql o'g'li</b>	
Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyati.....	404
<b>Abduraimova Maftunaxon Axmatovna</b>	
Bank risklarini boshqarishning xalqaro tajribalari.....	409
<b>Abdurasulov Jaxongir Abduvaliyevich</b>	
Tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy ma'sulligini ta'minlash mexanizmining amal qilish darajasi.....	416
<b>Bayisbayev Javlon Nurlanovich</b>	
Qishloq aholisining qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalarini o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash (Samarqand viloyati misolida).....	421
<b>Bozorova Lobar Nuralevna</b>	
Направления совершенствования инновационных стратегий в деятельности промышленных предприятий.....	427
<b>Дониерова Зухрабону Алишер кизи</b>	
Mol-mulk solig'ining korxonalar faoliyatiga ta'siri.....	432
<b>Qudiyarov Kishibay Ramatullayevich</b>	
Banklar reytingini aniqlash va barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'naliishlari.....	438
<b>Maxmudov Omon Tuxtayevich</b>	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini innovatsion usullar orqali boshqarishni takomillashtirish .....	442
<b>Mo'minova Ma'suda Baxtiyarovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini dasturiy ta'minot asosida tashkil etish: muammo va yechimlar.....	447
<b>Nazarova Kamola Sattorali qizi</b>	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning davlat tomonidan tartibga solish konsepsiysi.....	453
<b>Normurodov Xusan Eshmaxmatovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati hamda uni rivojlantirish istiqbollari.....	460
<b>Nurullayeva Shaxnoza, Saydullayeva Saodat</b>	
Tijorat banklari inson kapitali samaradorligini baholashda KPI ko'rsatkichlaridan foydalanan mexanizmlari.....	467
<b>Turaeva Mastura Kurbanovna</b>	
Сущность и особенности инвестиционно-строительного процесса .....	471
<b>А. Бектемиров, Б.М.Абдувалиев</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	478
<b>Saidov Hayotjon Raxmatulloevich</b>	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	482
<b>Sa'dullayeva Asalxon Muzaffarovna</b>	
Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshlikni baholash usullari .....	485
<b>Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich, Teshayev Mirolim Djumayevich</b>	
Tadbirkorlik subyektlarida soliq yukini optimallashtirish mexanizmi .....	490
<b>To'xsanov Qudratillo Nozimovich</b>	



Davlat sektorida ichki audit tadbirlarini umumiy rejalashtirish .....	495
<b>Xamidova Z. U.</b>	
Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va uning ahamiyati.....	501
<b>Xudayrova Xurshida Abdunazarovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	505
<b>Xudoberdiyev Jamshid Juraboy o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish.....	511
<b>Shaymatova Nargiza Ashurovna</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta xizmatlari.....	516
<b>Shodmonova Odina G'ofur qizi</b>	
Fuqarolar davlat pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati tahlili.....	520
<b>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li</b>	
Aholiga bank xizmatlari ko'rsatishning ijtimoiy ahamiyati.....	525
<b>Eldor Uskanov</b>	
Innovatsion boshqaruvning ilg'or xorijiy tajribalari .....	530
<b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>	
Neft-gaz korxonalari moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari tahlili ("O'ZBEKNEFTGAZ" AJ misolida) .....	534
<b>Umurzoqov Jamoliddin Sherbekovich</b>	
Korxonalarda savdo marketing faoliyati samaradorligini baholash.....	541
<b>Sobirov Azizbek Avzbekovich</b>	
Moliyaviy firibgarliklarga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	548
<b>Gadaev Ismat Yadgarovich</b>	
Hududlarda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshirilgan investitsion loyiҳalar: to'siqlar va yechimlar .....	551
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b>	
O'zbekistonda investitsiyalardan samarali foydalanish asosida oziq-ovqat sanoati samaradorligini oshirish yo'llari .....	554
<b>Kobilova Nasiba Xurramovna</b>	
Foreign Economic Relations as a Factor of Effective Functioning of the Economy .....	561
<b>Bakhodurova Sulkiya Azizkhodjaevna, Li Marina Rudolfovna, Mukhtarova Donata Ravshanbekovna, Romashkin Roman Anatolyevich</b>	
Modern Approaches to the Organization and Development of the Consumer Services Market.....	566
<b>Musyeva Shoira Azimovna</b>	
Ishlab chiqarish siklini qisqartirishning iqtisodiy samaradorligi.....	570
<b>Odina Nabiyevna Tuychiyeva, Nazarova Latofat Toirjon qizi</b>	
Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyasini amalga oshirish.....	575
<b>Rashidova Xadicha Tursunaliyevna</b>	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish yo'llari .....	581
<b>Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	
Korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha hisobot tuzish bo'yicha xorijiy tajriba .....	586
<b>Tashmatov Rustam Xusanovich</b>	
Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari .....	592
<b>Yuldashev Xusniddin Abdullayevich</b>	
Iqtisodiyotda turizm o'rnnini statistik baholash uslubiyoti.....	595
<b>Zilola Jumanova</b>	
Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республику Узбекистан .....	602
<b>Абдуллоев Фуркат Олимджонович</b>	
Блокчейн-технология и информационная безопасность в цифровой экономике Узбекистана.....	607
<b>Кадиров Алишер Исмаилович</b>	
Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов .....	611
<b>Раупов Жамшид Рашидович</b>	



O'zbekistonda zamonaviy kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga nazar .....	617
<b>Rashidova Odina Olimjon qizi</b>	
Cовременные тенденции развития валютных отношений в Узбекистане .....	622
<b>Камалов Камоладдин Каҳрамонович</b>	
Sug'urta sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni .....	626
<b>Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich</b>	
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi va undan	
O'zbekistonda foydalanish yo'naliishlari .....	630
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Modeling the Stackelberg strategy in a linear model (linear city) Hotteling.....	635
<b>Musayeva Shaira Azimovna, Usmonova Dilfuzा Ilkhomovna</b>	
Mulkning kapitallashuvi darajasini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish samaradorligini baholash uslublari.....	644
<b>Norbo耶v Odil Abrayevich</b>	
Tijorat banklarining kredit portfelini amaliy holati va ekonometrik tahlillari: ATB "Aloqabank" misolida.....	649
<b>Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna</b>	
O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" muhitida kreditlash va moliyalashtirish imkoniyatlari .....	654
<b>Taxir Urkinbayev</b>	
Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilishning xususiyatlari.....	658
<b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>	
Chinese Commercial Banks Experience in Asset Diversification.....	663
<b>Uktamova Nozima Narzulla kizi</b>	
Sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini ustuvor rivojlantirish istiqbollari.....	667
<b>Yadgarov Akram Akbarovich</b>	
Анализ деятельности коммерческих банков Узбекистана по кредитованию физических лиц.....	673
<b>Базарова Нигора Равшановна</b>	
Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning innovatsion jarayonlarga ta'sirini baholash.....	684
<b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari .....	689
<b>Kuziyeva Nargiza Ramazanova, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasi.....	694
<b>O. N. Djurayev</b>	
Raqamli iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini baholash .....	699
<b>Otaboyeva Dildora</b>	
Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlat tajribasi .....	705
<b>Raimov Xurshid Muxtorovich</b>	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniringni qo'llash istiqbollari .....	711
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi moliya bozorida tijorat banklari faoliyati: muammo va yechimlar .....	716
<b>Toymuxamedov Ibroxim Rixsboevich, Jumaev Islombek Akram o'g'li</b>	
Agrar ta'lim tizimida boshqaruva samaradorligini oshirish yo'llari .....	723
<b>Boltayev Nurali Shiramatovich, Beglayev Uchqun Kurramovich, Abdiев Izzat Risqiboyevich</b>	
O'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali	
yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari.....	731
<b>Davranov Iskandar Jumayevich</b>	
Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish.....	738
<b>Luqmanov Sharifxon A'зам o'g'li</b>	
Role of Private and Public Kindergartens in Early Childhood Development .....	744
<b>Makhmudova Munisakhon Abbas qizi</b>	
"Yashil" enegriya quvvatlarini barpo etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosi sifatida .....	749
<b>Muminova Elnoraxon Abdukarimovna, Umarova Dilnoza Oybek qizi</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari .....	754
<b>Qlichev Baxtiyor Pardayevich</b>	



Korxonada likvidlik riskini minimallashtirish orqali uning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish ..... <b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	759
Развитие международных торгово-экономических связей Республики Узбекистан ..... <b>Ким Татьяна Валерьевна, Гофуржонова Шахрибону Баҳромжон кизи</b>	766
Kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari ..... <b>A. Bektemirov, M. U. Sarimsoqov</b>	774
O'zbekiston mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish..... <b>Mambetjanov Qahramon Qurbanburdiyevich, Bahromov Shahzod Fazliddinovich</b>	780
Роль имиджа в улучшении инвестиционной привлекательности высших учебных заведений..... <b>Жанзаков Бекзот, Жонузоков Мирзабек</b>	787
Innovatsion kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi va uni mamlakat iqtisodiyotida qo'llash imkoniyati..... <b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Eshqulova Dilorom Abduravupovna</b>	795
Перспективы развития банковского сектора в Узбекистане для иностранных туристов ..... <b>Муминов Шахзод Низомиддинович, Каримова Азиза Махомадризоевна</b>	802
Innovatsion faoliyat moliyaviy modellari va mexanizmlarini rivojlantishning konseptual asoslari ..... <b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	806
Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda samarali foydalanish yo'llari ..... <b>Ishniyazov Baxrom Normamatovich</b>	814
Turistik xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari va marketing tadqiqotlari..... <b>Berdiqulova Iroda Rayimqulovna</b>	819
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi: asosiy muammolar va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari ..... <b>Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich</b>	823
Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharotlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari..... <b>Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.</b>	832
Kriptovalyuta va blokcheyn tadqiqotlari: tendensiyalar va istiqbollar .. <b>Berdiqulov Jurabek</b>	835
Bank risklarni monitoring qilish tizimini takomillashtirish .. <b>Hamroyev Sherzod Axtamovich</b>	837
O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda ko'p qavatli "yashil" fermer xo'jaliklarini tashkil etishning ahamiyati .. <b>Turdimuratova Aziza Alisherovna</b>	843
Surxondaryo viloyatining mahalliy budget daromadlarini oshirish yo'llari va uni arima modeli asosida prognozlash..... <b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	846
Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va undagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash..... <b>Zakirova Umida Maxamadaminovna</b>	856
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati .. <b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b>	863
Turizm bozorini rivojlantirishda mehnat bozorining tutgan o'rni va ahamiyati .. <b>Berdiqulova Iroda Rayimqulovna, Berdikulov Jurabek</b>	872
Проблемы расчета определения и планирования прибыли предприятий в условиях модернизации экономики .. <b>Алиева С.С.</b>	876



# AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA UNING AHAMIYATI

Xudayarova Xurshida Abdunazarovna

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti



**Annotatsiya:** Ushbu maqola moliyaviy savodxonlikning turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflarini, unga ta'sir etuvchi omillarni ochib berib, xorij tajribalariga asoslangan holda mamlakatda moliyaviy savodxonlikuni oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalarga asoslangan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy savodxonlik, moliyaviy resurslar, omillar, munosabat, bilim, ko'nikma.

**Abstract:** This article reveals the definitions of financial literacy given by various scientists, the factors that influence it, and recommendations on ways to improve financial literacy in the country based on foreign experiences.

**Key words:** financial literacy, financial resources, factors, attitude, knowledge, skills.

**Аннотация:** В данной статье раскрыты определения финансовой грамотности, данные различными учеными, факторы, влияющие на нее, а также рекомендации по путям повышения финансовой грамотности в стране на основе зарубежного опыта.

**Ключевые слова:** финансовая грамотность, финансовые ресурсы, факторы, отношение, знания, навыки.

## KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalari juda tez o'zgarib bormoqda. O'zgarishlar moliyaviy sohada ham amalga oshirilib, ijtimoiy taraqqiyotning barcha so'nggi yutuqlariga mos kelmoqda. Hozirgi vaqtida moliyaviy soha inson hayotining yetakchi omillaridan biri bo'lib, u jamoat va shaxsiy hayotning deyarli barcha sohalarga ta'sir etmay qo'ymaydi. Shu boisdan joriy yillarga kelib ushbu sohada turli tadbirlarni amalga oshirishga doir keng tajriba to'plangan. Mamlakatimizda ham aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli loyihami amalga oshirish boshlangan va ushbu sohani takomillashtirishga qaratiladigan e'tibor yildan yilga oshib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti voqeligi aholining jamg'arib boriladigan nafaqa fondi, sug'urta dasturlari va ipoteka sxemalarida keng ishtirokini talab etadi, bu o'z navbatida aholining nafaqalarini jamg'arish, uy joy bilan ta'minlash, ijtimoiy va tibbiy sug'urta bilan bog'liq masalalarini hal etishda bevosita yordam beradi. Shu bilan birga, yangi jamg'arma va sug'urta instrumentlarini qo'llash, moliya institutlari bilan samarali o'zaro munosabatlarga kirish, bank va sug'urta mahsulotlardan samarali foydalanish aholidan yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlikni talab etadi. Yuqoridagilardan ko'rindik moliyaviy bilimlarning oshishi, iqtisodiy tarraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblangan fuqarolarning hayot sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda, iqtisodiy lug'atlarda va ilmiy ishlarda moliyaviy savodxonlik tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Ushbu tushunchalarning nazariy asoslarini ko'rib chiqadigan bo'lsak.

Xorij olimlaridan Lusardi va Mitchellilar "Moliyaviy savodxonlik-asosiy moliyaviy masalalar va unga tegishli atamalar haqidagi bilim bo'lib, u insonlarni moliyaviy qo'yilmalarni tushunish, o'qiy olish, nafaqaga chiqish rejasini ishlab chiqish va kundalik moliyaviy qarorlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan voqealarga oqilona munosabatda bo'lish qobiliyatidir" [2] deb ta'rif berishgan. Yana bir iqtisodchi olim Schshab moliyaviy savodxonlikni insonning umr bo'yini moliyaviy farovonlik uchun moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda o'z moliyaviy bilimlari va ko'nikmalaridan foydalanish qobiliyati deb ta'riffagan. Ushbu ta'rifning asosiy farglovchi xususiyatlaridan biri shundaki, Schshab moliyaviy farovonlikni moliyaviy savodxonlik ta'rifining o'ziga xos bir xususiyati sifatida tan olgan [3]. Ba'zi tadqiqotchilar, masalan, Huston va Remund moliyaviy savodxonlikni insonlarga moliyaviy qarorlarni samarali qabul qilishga yordam beradigan mahorat deb ta'riffaganlar [4].



Kanada Moliyaviy iste'molchilar agentligi hujjatlaridagi ta'rifga ko'ra, "moliyaviy savodxonlik – bu mas'uliyatlari moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun bilim, ko'nikma va ishonchga ega bo'lishdir". Agentlik bilimni "shaxsiy moliyaviy masalalarini tushunish" sifatida; qobiliyatlarni "moliyaviy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyati" sifatida; ishonchni "muhim qarorlar qabul qilish uchun o'z-o'ziga ishonchga yega bo'lish" sifatida va mas'uliyatli moliyaviy qarorlarni "insonlarning o'z sharoitlariga mos keladigan tanlov qilish uchun oлgan bilimlari, ko'nikmalari va ishonchlaridan foydalanish qobiliyati" sifatida ta'riflagan [5].

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida "Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko'nikma, qadriyatlar va xulq-atvor kabi elementlarning majmui" [6] deb ta'rif bergan.

Yuqoridaagi ta'riflardan xulosa qilish mumkinki, moliyaviy savodxonlikning standartlashtirilgan ta'rifi mavjud bo'limsa ham, adabiyotlarga asoslangan holda moliyaviy savodxonlik yangi murakkab moliyaviy vositalarni tushunish va baholash uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy ko'nikmalar; moliyaviy resurslarni boshqarish; iqtisodiy axborotni qayta ishslash; va moliyaviy farovonlikka erishish uchun moliyaviy rejalashtirish, boylik to'plash, pensiya va qarzlar bo'yicha mas'uliyatli moliyaviy qarorlar qabul qilishlarni o'z ichiga oluvchi tushuncha sifatida ta'rif yetilishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va ilmiy uslubiy asosi bo'lib iqtisodiy yo'nalishdagi turli manbalardan olingan ilmiy maqolalar, xorijiy iqtisodchi olimlarning aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari bo'yicha tadqiqotlari, mutaxassislarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar hisoblanadi. Shuningdek, izlanishlar jarayonida baholash iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli xulosalar chiqarishga imkon beruvchi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar va tahlillar natijasida shuni ko'rdikki moliyaviy savodxonlik deganda jismoniy shaxslarning o'z moliyaviy mablag'larini samarali boshqara olish, hamda joriy va uzoq muddatli istiqbolli moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati tushunilgan. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan:

- odamlarning o'z mablag'lari doirasida yashash, shaxsiy moliyaviy holatini kuzatish, kelajakdagagi daromad va xarajatlarini rejalashtirish, to'g'ri moliyaviy mahsulotlarni tanlash va moliyaviy muammolarni tushunish. (Buyuk Britaniya, Moliyaviy xizmatlarni tartibga solish va nazorat qilish boshqarmasi);
- har bir shaxsning doimiy o'zgaruvchan shaxsiy va tashqi iqtisodiy sharoitlarga samarali javob bera olish qobiliyati (AQSH, Moliyaviy savodxonlik bo'yicha maslahat kengashi);
- moddiy farovonlikka ta'sir etuvchi moliyaviy sharoitlarni tahlil qilish, boshqarish, o'qiy bilish va anglash qobiliyati (AQSH, Ijtimoiy va moliyaviy tadqiqotlar instituti).

Munosabat	<ul style="list-style-type: none"><li>• shaxsiy budgetni rejalashtirish amaliyoti, to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish, oqilona qilingan haridlar</li></ul>
Bilim	<ul style="list-style-type: none"><li>• asosiy moliyaviy tushunchalar va moliyaviy arifmetika</li></ul>
Ko'nikma	<ul style="list-style-type: none"><li>• xarajatlar va daromadlar balansini nazorat qilish, kundalik hayotda pul tushunchasini tushunish</li></ul>

1-rasm: Moliyaviy savodxonlik uch muhim komponenti

Shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy savodxonlik sohasidagi masalalar doirasi ancha keng bo'lib, nafaqat shaxsiy budgetni boshqarish qobiliyatini, balki bank va sug'urta xizmatlaridan xabardor bo'lismeni, iste'molchilar huquqlarini bilishni, investitsiya qilish tamoyillarini tushunishni va tavakkalchilikni aniqlashlarni ham qamrab oladi. Ayniqsa, bunda ortiqcha qarzlarning shakllanishi va bankrotlik xavfining oldini olish zarurligi sababli moliyaviy risklarni boshqarish muhim masala bo'lib hisoblanadi.



Moliyaviy savodxonlikka ta'sir etuvchi omillarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- **Demografik omillar:** yosh, jins, ta'lif, tajriba, daromad, kasb, bandlik xususiyati. Ushbu omillar ichidan aholining yoshini olib ko'radigan bo'lsak, tahlillar shuni ko'rsatadiki aholining yosh va yoshi katta qatlamida moliyaviy savodxonlik darajasi, o'rta yoshliklarga nisbatan pastroq bo'lganligi sababli ular moliyaviy xatoliklarga ko'proq yo'l qo'yishadi [8]. O'zbekiston misolda ko'radigan bo'lsak, 2023-yilda jami aholining 63 foizini yoshlar (35 yoshgacha) va 18 foizini yoshi kattalar (50 yoshdan katta) tashkil qiladi, statistikadan ko'rindan moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish qatlami jami aholining 81 foizini tashkil etadi. Jinsni ko'radigan bo'lsak AQSHda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ayollarning moliyaviy savodxonligi erkaklarnikiga qaraganda pastroq bo'lishi mumkin ekanligi kuzatildi. Buning sababi bo'lib ayollarning moliyalashtirish qarorlarida erkaklarga qaraganda kamroq ishtirot etishi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini taxmin qilindi. Shuningdek, ko'plab tadqiqotlar ayollarning birja operatsiyalarida ishtirotning past bo'lishini tasdiqladi [9].
- **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** kasb-hunar, shaxsiy daromad, mavqe, boylikning boshqa omillari.
- **Rivojlanish omillari:** oiladagi tarbiya, bolalik tajribasi, bandlik darajasi, sog'lik, kreditdan foydalanish imkoniyati. Rivojlanish omillari ichida bizning nazarimizda aholining bandlik darajasi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, odatda bandlik darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda moliyaviy savodxonlik darajasi nisbatan yuqori bo'ladi, buni band aholining daromad olishi bilan izohlashimiz mumkin.
- **Xulq atvor omillari:** o'ziga ishonch, o'z o'zini qadrlash.
- **Moliyaviy munosabatlar:** bunda insonlarning moliyaviy mablag'larini boshqara olish qobiliyati yoki ushbu sohadagi qiziqishlarini oshirishdan manfaatdorlik.
- **Moliyaviy qarashga ta'sirlar:** oila, do'stlar, tanishlar, tengdoshlarning ta'siri.
- **Shaxsiy psixologik omillar:** motivatsiya, idrok etish, o'rganish.
- **Madaniy faktura va din:** Ushbu omillar ichida dinni ko'radigan bo'lsak, odatda islom dini mamlakatlarida, oiladagi moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ayollarning ishtiroti nisbatan pastligi kuzatiladi. Bu o'z navbatida ayollar orasida moliyaviy savodxonlik darajasining pastligiga olib keladi. O'zbekiston aholisining ham 90 foiziga yaqinini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashkil qiladi.

Ta'sir etuvchi omillardan kelib chiqib, turli mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarining asosiy maqsadi farqlanishi mumkin. Aksar mamlakatlarda dasturlar aholining bolalar va yoshlar qatlamiga qaratilgan va dasturni joriy qilishning asosiy instrumenti bo'lib internet hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlarda esa alohida ijtimoiy guruhlarga individual loyihamar ham ishlab chiqilgan. Masalan: Avstraliyada yosh uy bekalari uchun alohida dastur mavjud.

Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'lif dasturlari rivojlanish darajasi	Mamlakatlar
Ko'p sonli yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlariga ega bo'lgan; moliyaviy savodxonlikni oshirish muammosi uzoq vaqtдан beri o'rganilayotgan va dasturlari takomillashtirishgan.	AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, Germaniya, Buyukbritaniya, Singapur
Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari ishlab chiqilgan; ammo moliyaviy savodxonlikni aniqlash va uni oshirish dasturlari takomillashtirilmagan.	Gollandiya, Italiya, Polsha, Xindiyaton, Avstriya, Rossiya
Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari yaqin yillarda ishlab chiqilgan; muammolar endi o'rganila boshlangan.	Argentina, Markaziyo osiyo davlatlari, Saudiya Arabiston

**2-rasm:** Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'lif dasturlarining rivojlanish darajasi bo'yicha mamlakatlarni guruhi [9]

Deyarli barcha mamlakatlarda bu dasturlar davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va jamoat tashkilotlari hisobiga moliyalashtiriladi:

- Belgiya, Polsha, Koreya mamlakatlarida Milliy (markaziy) banklar tomonidan;
- AQSH, Buyuk Britaniya mamlakatlarida Moliyaviy regulatorlar va ularga tenglashtirilgan tashkilotlar tomonidan;
- Avstriyada Bandlik masalalari bo'yicha institutlar (tashkilotlar) tomonidan;



- Slovakiyada Ta'lim vazirliklari va ta'lim tashkilotlari tomonidan;
- Belgiyada Qarzni to'lash bo'yicha muassasalar (tashkilotlar) tomonidan;
- Polshada turli xil Fondlar tomonidan.

Shu bilan birga, AQSH, Polsha va boshqa mamlakatlarda xususiy sektorlar tomonidan xam moliyalashtiriladigan dasturlar mavjud bo'lib, ushbu sektorlar tarkibiga asosan tijorat banklari kiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, aholini moliyaviy savodxonligini oshirish bugungi kundagi dolzab masalalardan biri hisoblanib dunyoning turli mamlakatlarida moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish, dasturlar va ushbu dasturlarni moliyalashtirish manbalari bir birlaridan farq qiladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini samarali joriy etayotgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib qo'yidagilarni tavsiya qilish mumkin:

1. Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari xayotni rejalashtirishda muhim hisoblangan yo'nalishlarga qaratilgan bo'lishi lozim. Jumladan jamg'arma, kredit va qarzni boshqarish, sug'urta, pensiya, moliyaviy risklarni boshqarish, iste'molchilar huquqlarni himoya qilish;
2. Har bir maqsadli guruh uchun alohida dasturlar va usullardan foydalanish.
3. Moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayoniga barcha moliya institutlarini jalb yetish, bunda asosan veb-saytni yaratish va unda imkoniyatlar, risklar va iste'mol bilan bog'liq ma'lumotlarni joylashtirib borish lozim.

Yuqorida tavsiyalarni samarali qo'llash orqali, mamlakatimiz aholisining, ayniqsa yosh va yoshi kattalar hamda ayollarning moliyaviy savodxonligini yanada oshirishga erishish mumkin hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. 2021-yil 13-aprel. –<https://lex.uz/>
2. Lusardi, A & Mitchell 'The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence', Journal of Economic Literature, том. 52, № 1, 5-44 бет, 2014.
3. Schwab, C, Iannicola Jr, D, Beck, T, Hira, T, Bryant, JH, Parker, J, Levine, L & Dawson, C 2009, President's Advisory Council on Financial Literacy, 13455, The department of the treasury, Washington, 2020 йил 20 август.
4. Remund, DL 2010, 'Financial Literacy Explicated: The Case for a Clearer Definition in an Increasingly Complex Economy', Journal of Consumer Affairs, том. 44, №. 2, 276-95 бет. Huston, 'Measuring Financial Literacy', Journal of Consumer Affairs, том. 44, №. 2, 296-316 бет, 2010.
5. Stewart, Canadians and Their Money: Building a Brighter Financial Future: Report of Recommendations on Financial Literacy, Department of Finance Canada, 2010.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2017.
7. Volpe, RP, Kotel, JE & Chen, H 'A Survey of Investment Literacy among Online Investors', Journal of Financial Counseling and Planning, том. 13, № 1, 1-16 бет, 2002.
8. Agarwal, S, Driscoll, JC, Gabaix, X & Laibson, D 'The Age of Reason: Financial Decisions over the Life-Cycle with Implications for Regulation', Brookings Papers on Economic Activity, том. 9, № 2, 51-117 бет, 2009.
9. Еремина О.И Финансовая грамотность населения и пути ее повышения [https://educenter.ru/netcat\\_files/userfiles/files/3.37/Stat'i/elibrary\\_28986098\\_16076486EREMINA.pdf](https://educenter.ru/netcat_files/userfiles/files/3.37/Stat'i/elibrary_28986098_16076486EREMINA.pdf)

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

